

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 336.713:330.1(575.1)

RAXMANOV ILXOM XURRAMOVICH

TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING
USLUBIY VA AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH
YO‘LLARI

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy maslahatchi: Abdullayeva Sharbat Zulpikarovna
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent shahri – 2026-yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. “RESURS” VA “RESURS BAZASI” HAMDA TIJORAT BANKLARI RESURSLARI XUSUSIDAGI NAZARIY QARASHLAR.....	18
1.1. “Resurs” va “resurs bazasi” xususidagi nazariy qarashlar hamda ularning banklar faoliyatiga oid talqini.....	18
1.2. Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ta’minlashning zarurligi va uning nazariy asoslari.....	37
1.3. Tijorat banklarida barqaror resurs bazasi shakllanishining bozor mexanizmlari.....	60
Birinchi bob bo’yicha umumiy xulosalar.....	70
II BOB. TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI TA’MINLASHNING XORIJ TAJRIBASI VA XALQARO TALABLARI.....	72
2.1. Rivojlangan mamlakatlarning tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ta’minlash borasidagi tajribalari.....	72
2.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ta’minlash borasidagi tajribalari.....	99
2.3. Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ta’minlashning xalqaro talablari va tavsiyalari.....	111
Ikkinchi bob bo’yicha umumiy xulosalar.....	125
III BOB. O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI TA’MINLASH AMALIYOTINING TAHLILI VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	127
3.1. Tijorat banklari resurslari shakllanish amaliyoti bilan bog‘liq muammolar tahlili.....	127
3.2. Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.....	146
3.3. Tijorat banklari resurs (kredit va investitsion) potensialini baholash metodlari.....	162
Uchinchi bob bo’yicha umumiy xulosalar.....	178
IV BOB. TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI TA’MINLASHNI STRATEGIK REJALASHTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....	180
4.1. Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ta’minlashni strategik rejalashtirish.....	180
4.2. Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ta’minlashning amaliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish va prognozashtirish.....	190
To‘rtinchi bob bo’yicha umumiy xulosalar.....	205
XULOSA.....	207
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	211

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global miqyosda noaniqliklar saqlanib qolayotgan bir sharoitda bank sektorining moliyaviy stress holatidan kelib chiqadigan shoklarning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida xalqaro tashkilotlar moliyaviy sektorning real iqtisodiyotga ta'siri xavfini kamaytirishga qaratilgan kapital va likvidlilik talablarini mustahkamlash bo'yicha xalqaro standartlarni taqdim etmoqda. Xalqaro hisob-kitoblar bankining Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi banklarni moliyaviy shoklardan himoya qilish va resurs bazasi barqarorligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga oid bir qator talablarni joriy etdi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqida banklar uchun o'z mablag'lari va qabul qilingan majburiyatlarning minimal talablari (MREL) hamda global tizimli ahamiyatga molik banklar (G-SIB) uchun zararlarni qoplashning umumiy darajasiga qo'yiladigan talablar (TLAC) barqaror va uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, tizimli xatarlarni boshqarish maqsadida ishlab chiqilgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, uzoq muddatli istiqbolda sun'iy intellekt (AI) banklar rentabelligi darajasini kamaytirishi ehtimoldan xoli emas. Chunki bank mijozlari o'z moliyaviy mablag'larini optimallashtirish maqsadida muntazam sun'iy intellekt xizmatlaridan foydalanmoqda. "McKinsey Panorama ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda 70 trillion dollarlik mijozlar depozitlarining 23 trillion dollari deyarli nol foiz stavkali joriy hisobraqamlarda mavjud bo'lib, qolgan qismi esa, nisbatan past foizli boshqa jamg'armalarda saqlanmoqda. Agarda joriy hisobraqamlar bo'yicha qoldiqning kamida 5-10 foizi eng yuqori bozor stavkalariga ega hisobraqamlarga transfer qilinsa, banklar tarmog'ining depozitlardan olinadigan umumiy foydasini 20 foizga yoki undan ko'proq kamaytirishi mumkin. Modomiki, banklar yaqin kelajakda o'z biznes modellarini o'zgartirmas ekan, keyingi 10 yil ichida ular umumiy foydasi 170 milliard dollarga, ya'ni 9 foizga qisqarishi mumkin. Bu esa, o'rtacha daromadlilik ko'rsatkichining kapital qiymatidan past bo'lishiga asos bo'ladi".¹

¹ McKinsey & Company. "Global Banking Annual Review 2025: Why Precision, Not Heft, Defines the Future of Banking." October 23, 2025. <https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/global-banking-annual-review>.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, banklarning uzoq muddatli aktivlarga qo'yilmalarni amalga oshirishlari uchun qisqa muddatlarga mablag'larni jalb qilish amaliyoti natijasi ularni omonatchilarga bog'lagan holda moliyaviy zaif qilib qo'yadi. Depozitlarni to'liq bo'lmagan miqdorda kafolatlanmaganligi esa, moliyaviy tizimda disbalansni yuzaga keltirmoqda. Bu holat ayniqsa onlayn va internet-banking rivojlangan davrda yanada o'zini oqladi. Shuni inobatga olish kerakki, omonatlarni to'liq kafolatlash tizimi bank o'tkazmalarining keskin oshishiga to'sqinlik qiladi². 2023-yilda AQShda "Silicon Valley Bank" bank ishida oddiy klassik xatoga yo'l qo'ydi, ya'ni qisqa muddatga depozitlarni jalb qilish orqali mazkur resurslarni uzoq muddatli obligatsiyalarga investitsiya qildi. Qolaversa, mijozlar boshqa bir bank, ya'ni "Signature Bank" dan 10 milliard dollardan ortiq depozitlarni ommaviy tarzda qaytarib olishdi. Mazkur banklarning inqirozga uchrashining yana bir asosiy sabablaridan biri depozitlarni sug'urtalash chegaralari, ya'ni sug'urtalanmagan depozitlarning ulushi jami majburiyatlar tarkibida 90 foizni tashkil etishi bilan bog'liqdir. Odatda, mazkur ko'rsatkich banklarda 20-30 foiz darajasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. AQSh banklarining muvaffaqiyatsizligi ortidan Shveytsariyaning "Credit Suisse" banki jiddiy tang ahvolda qoldi. Depozitorlar uch kun ichida "Credit Suisse" dan ommaviy tarzda 35 milliard AQSh dollarini hisoblaridan olishdi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, "First Republic Bank" AQShning eng yirik banklari tomonidan 30 milliard dollarlik depozit inyeksiyasiga ehtiyoj sezdi. Depozit inyeksiyasi AQSh bank regulyatori tomonidan kelishilgan ma'naviy qo'llab-quvvatlash kelishuvi bo'lib, bank resurs bazasini mustahkamlash va AQSh bank tizimining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan edi³.

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlash, ularning bank tizimi barqarorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan stress-test modellarini ishlab chiqish. Bunda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarga banklarning bardoshlilikini ta'minlash maqsadida makroprudensial buferlar yaratish choralarini

² Diamond, D., & Dybvig, P. Bank runs, deposit insurance, and liquidity // Journal of Political Economy. - 1983. - №3. - P. 401-419.

³ Peterson, K., & Ozili. Causes and consequences of the 2023 banking crisis - MPRA Paper No. 120153. - Posted 21 Feb. 2024. - P. 22. <https://mpra.ub.uni-muenchen.de/120153>.